

NAVOIYNING «MUHOKAMAT UL – LUG‘ATAYN»IDAGI 100 TA FE’LNING SEMANTIK XUSUSIYATLARINI O‘RGANISH

Omidullah Bayani

Dotsent, Balx universiteti filologiya fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası.

E-pochta: omidbayani11@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15598529>

Annotatsiya. Navoiyning «Muhokamat ul - lug‘atayn»idagi 100 ta fe’lning semantik xususiyatlarini o‘rganish nomli ushbu maqola, eski o‘zbek va fors tillarining semantik tizimini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Mazkur fe’llarning so‘z qirralari, ma’no kengligi, ularning ideografik sinonimlari hamda kontekstual antonimlari tahlil qilinadi. Shuning uchun ham mazkur fe’llarning qanday semantik xususiyatlari borligini o‘rganish maqolamizning maqsadidir. Ushbu maqolaning moddiy manbalari, asosan, Navoiyning o‘z asarlari va uning asarlariga bag‘ishlangan Turkiya, Eron va O‘zbekiston kabi davlatlarda chop etilgan kitoblardan unumli foydalanib, mazkur fe’llarning ma’nolari dastlab Navoiyning o‘z asarlarida hamda uning asarlariga bag‘ishlangan asarlar bilan birma-bir qiyoslanib, topilgan ma’nolar asosida, uning semantik xususiyatlari tahlil ostiga olinadi. Bundan tashqari, Navoiyning bu fe’llarni tanlashdan maqsadi, har bir fe’lning ko‘plab ma’nolarini ko‘rsatish va ularni bir-biriga bog‘lash orqali tilning ifodaviylik imkoniyatlarini yanada kengaytirishga intilganligini ayniqsa, fe’llarning ma’nosidagi nozik farqlar va ularning kontekstual o‘zgaruvchanligi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, Navoiyning tahlillari yordamida eski o‘zbek va fors tillaridagi fe’l va ularning semantik rang-barangligi haqida yangi ilmiy fikrlar va nazariyalar shakllantiriladi hamda Navoiyning tilshunoslikdagi yuqori bilimini va uning eski o‘zbek va fors tillari o‘rtasidagi semantik bog‘lanishlarni qanday chuqur o‘rganganini ko‘rsatadi.

Tayanch so‘zlar: o‘rganish, polisemantik, sinonim, fe’l, kontekstual antonim, Muhokamat ul-lug‘atayn, nozik ma’nolar.

STUDYING THE SEMANTIC FEATURES OF 100 VERBS IN NAWAI’S BOOK (MAHAKAMATUL LUGHATAYN)

Abstract. This article, titled Studying the semantic features of 100 verbs in Nawai's book (Mahakamat-ul Lughatayn, is dedicated to an in-depth analysis of the semantic systems of Old Uzbek and Persian languages. It examines the lexical nuances, semantic breadth, ideographic synonyms, and contextual antonyms of these verbs. The primary goal of the article is to explore the semantic characteristics of these verbs.

The article's sources mainly consist of Nawai's own works and books dedicated to his writings, published in countries such as Turkey, Iran, and Uzbekistan. The meanings of these verbs are initially identified in Nawai's texts and compared with interpretations in secondary literature about his works. Based on this comparative analysis, their semantic features are studied in detail.

Moreover, Nawai's purpose in selecting these verbs was to highlight their multiple meanings and interconnections, thereby expanding the expressive potential of the language. The article emphasizes the subtle distinctions in the meanings of these verbs and their contextual variability, which hold significant importance. Through Navoi's analyses, new scientific ideas and theories about the verbs and their semantic diversity in Old Uzbek and Persian languages are developed. Additionally, it highlights Navoi's profound linguistic knowledge and his deep exploration of the semantic connections between Old Uzbek and Persian languages.

Keywords: Studying, polysemantic, synonym, verb, contextual antonym, comparison of two languages (*muhākamatul-lugatayn*), subtle meanings.

ИЗУЧЕНИЕ СЕМАНТИЧЕСКИХ СВОЙСТВ 100 ГЛАГОЛОВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «МУХОКАМАТ УЛ-ЛУГАТАЙН» НАОИ

Аннотация. В данной статье под названием «Изучение семантических свойств 100 глаголов в произведении Навои «Мухокамат ул-луг'атайн» ставится цель углубленного анализа семантической системы древнеузбекского и персидского языков. Анализируются аспекты слова, широта значения, их идеографические синонимы и контекстуальные антонимы этих глаголов. Поэтому целью нашей статьи является изучение семантических свойств этих глаголов. Используя материальные источники данной статьи, в основном собственные произведения Навои и книги, изданные в таких странах, как Турция, Иран и Узбекистан, посвященные его произведениям, значения этих глаголов первоначально сравниваются одно за другим с теми, которые встречаются в собственных произведениях Навои и произведениях, посвященных его произведениям, и на основе найденных значений анализируются их семантические свойства. Кроме того, цель Навои при выборе этих глаголов заключается в дальнейшем расширении выразительного потенциала языка путем показа множественных значений каждого глагола и связывания их между собой, тем более, что тонкие Важны различия в значении глаголов и их контекстная изменчивость. Также с помощью анализов Навои формируются новые научные идеи и теории о глаголах и их семантическом разнообразии в староузбекском и

персидском языках, что свидетельствует о высоких познаниях Навои в языкознании и о том, насколько глубоко он изучал семантические связи между староузбекским и персидским языками.

Ключевые слова: *исследование, полисеманτικότητα, синоним, глагол, контекстуальный антоним, Мухокамат ул-лугайн, тонкие значения.*

KIRISH

Turkiy tilshunoslik, jumladan, o'zbek tilshunosligi hamda Navoiyshunoslikning muhim tadqiqiy mavzularidan biri 6 asrdan oldin eski o'zbek tilida yozilgan Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asari turkiy tillar qoidalari, xususan fe'llarining ma'noviy xususiyatlarini aniqlash va undan amaliy tilshunoslikda unumli foydalanishdir.

Navoiyning asarlari ko'p mamlakatlarda o'rganildi va o'rganilmoqda. Uning asarlaridan bo'lmish "Muhokamat ul - lug'atayn" asari Fransiya, Rossiya, Turkmaniston, Ozarbayjon, Eron, Turkiya, O'zbekiston, Afg'oniston va boshqa mamlakatlarda ham chop etilgan bo'lib, unda keltirilgan 100 ta fe'lning ma'nosini o'rganish ham ko'plab filologlar tomonidan o'rganilib kelingan. Turkiyalik tilshunos F. Sema Brutchi tomonidan 1996-yilda nashr etilgan "Muhokamat ul-lug'atayn"da mazkur fe'llar turk tili alifbosi tartibida alohida bob sifatida ma'nosi ham berilgan.

Eronlik doktor Muhammad Husayn Sodiqzoda tomonidan 2008-yilda (hij. sh. 1387da) chop etilgan "Muhokamat ul-lug'atayn"da Turxon Ganjaviyning forscha tarjimai, ozarbayjoncha tarjimai, asli eski o'zbek tilidagi matn va transkripsiyasi hamda unga ilovalar qo'shib nashr etilgan, unda 100 fe'lning ma'nolari fors tilida berilgan. Afg'onistonda 2009-yilda (hij.sh. 1388da) (Toshqin Bahoiy tomonidan chop etilgan "Muhokamat ul-lug'atayn"da yuzta fe'lning ma'nosi ilova sifatida berilgan.

Lekin hech birida ham uning semantik xususiyati haqida so'z yuritilmagan.

Mazkur fe'llarning semantik xususiyati haqida Farg'ona universitetining dotsenti Umarova Nargiza va magistranti Mahmudova Nafosatxon Emin qizilarning hammuallifligida "Ijodkor o'qituvchi" jurnalining 2022-yil 24-sonida nashr etilgan «Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida keltirilgan yuzta fe'llarning semantik taraqqiyoti» nomli maqolada Navoiy keltirgan yuzta fe'lning ma'nosi berilmasdan, uning semantik xususiyatlari haqida to'xtalib, o'zbek filologlarining ilmiy qarashlariga shaxsiy munosabat bildirilgan holda yozilgan.

Mazkur maqala, bulardan farqli holda, 100 ta fe'lining yaqin ma'nolari, xususan o'z asarlarida qaysi ma'nalarda ishlatilganligi nazarda tutilib, ma'no etiladi. Navoiyning o'z asarida ishlatmagan fe'llar esa Navoiy asarlariga bag'ishlangan asarlardan foydalangan holda, ularning semantik qirralari aniqlanadi hamda ularning joylashishi va qanday nozik ma'nolarni ifoda etishini o'rganish bilan farqlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hazrat Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" (Ikki til muhokamasi) asari hijriy 905-yilning Jumod ul-avval oyida (milodiy 1499-yilning dekabr oyida) yozib tugatilgan tilshunoslikka oid asar bo'lib, unda turkiy (eski o'zbek tili) va o'sha davr she'riyat-shoirlik tili hisoblangan fors tilini qiyoslagan. Eski o'zbek tili fors tilidan farq qiluvchi xususiyatlari, jumladan ayrim grammatik qoidalar, nozik ma'nolarni ifodalovchi fe'llar, ayrim badiiy adabiyotdagi janrlar va ularning qanday ifodalanishi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.

Demak, Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asari bilan turkiy til imkoniyatlari keng ekanligini isbotlab, fors tilidan qolishmasligini isbot qilgan. Asarda qayd etilgan lingvistik va badiiy xususiyatlarni, xususan, unda keltirilgan yuzta fe'l va uning aniq ma'nolarini bilish bilan birga, mazkur fe'llarning semantik xususiyatlarini o'rganish bugungi kunda o'ta muhim masalalardan biridir.

NATIJA VA MUHOKAMA

"Muhokamat ul-lug'atayn" asarida keltirilgan 100 ta fe'l quyidagilardan iborat: **quvarmoq** (quvramoq, vaqt o'tishi bilan tarovatini yo'qtish, qurimoq, so'lmoq, qurushmoq); **quruqshamoq** (haddan tashqari qurimoq, qaqshab qolmoq, qaqshamoq); **usharmak** (ushtamoq, bo'lak-bo'lak qilib sindirmoq, qattiqlikdan bo'lak-bo'lak bo'lib ketmoq); **jiyjaymoq** (tashqariga yo'nalmoq, tashqariga to'g'ri chiqib to'xtamoq); **o'ngdaymak** (yo'nalmoq, o'ng holatga keltirmoq, to'g'rilamoq, sog'aymoq); **chekraymak** (tunni uxlamasdan tong ottirmoq, uyqusi qochmoq); **do'msaymoq** (birovga qosh-qovoq tushirmoq, birovni yoqtirmaslik); **umunmoq** (umid qilmoq, kutmoq, birovga umid va ishonch ko'zi bilan qaramoq); **o'sanmoq** (bezmoq, zerikmoq, charchamoq); **yigirmak** (yigirmoq, harakatga keltirmoq, aylantirmoq, yo'nalishini o'zgartirmoq); **egarmak** (ta'qib qilmoq, o'rab olmoq, davr urmoq); **o'xranmak** (o'qnamoq, ot va sigirning bo'g'iq tavush chiqarmog'i); **toriqmoq** (siqilmoq, yurakka tushmoq, zerikmoq va namoyon bo'lmoq); **aldamoq** (fariyb bermoq, yolg'on gap, va'dalar bilan ko'ndirmoq); **arg'damoq** (aldamoq, ko'p yolg'on so'zlamoq, ko'p yolg'on-yashiq va va'dalar bilan ko'ndirmoq); **ishonmak** (ishonmoq, inonmoq, ishonch bilan qaramoq); **iglanmoq** (vaqt

kechirmoq, vaqtni chagʻ oʻtkazmoq, oʻtirgan yoki toʻxtagan holatda zavqlanmoq); **aylanmoq** (zavqlanmoq, dam olmoq, vaqtni yaxshi oʻtkazmoq, sayr qilib zavqlanmoq); **egrikmak** (qotib qolmoq, xayolga choʻmmoq, ketmoq); **igranmak** (ingranmoq, dard-alam chekmoq, xoʻrsinmoq, ogʻriq bilan yashirin va asta yigʻlamoq; nafratlanmoq, parhez qilmoq); **ovunmoq** (tasalli topmoq, mashgʻul boʻlmoq); **qistamoq** (shoshirmoq, tezlammoq, majbur qilmoq); **qiynamoq** (qiyn ahvolga solmoq, majbur qilmoq, azob bermmoq); **qoʻzgʻolmoq** (oʻrnidan turmoq yoki siljimoq; harakatga kelmoq, oyoqqa turmoq); **Sovrulmoq** (sovrulmoq, shimolga berilmoq, sochmoq); **chayqalmoq** (chayqamoq, chaymoq; toʻlqinlanmoq, harakatga kelmoq); **devdashimak** (qoʻzgommoq, harakat qilmoq); **qiymanmoq/qimsanmoq** (oʻt arzu etmoq, koʻp istamoq); **qizgʻanmoq** (rashk qilmoq, hasad qilmoq, baxillik qilmoq); **nikamak** (koʻp qiziquvchanlik tufayli birovni bezovta va xafa qilmoq); **siylanmoq** (hurmatlanmoq, hurmatini bajo keltirmoq, izzatlammoq; mehmon qilmoq, qabul qilish); **tanlammoq** (saylanmoq, sarasini olmoq, saralab olmoq); **qimirdamoq** (qimirlamoq, asta-sekin harakat qilmoq, silkinib turmoq); **serpmak** (serpamoq, zarb bilan urmoq, silkib harakatga keltirmoq, siltamoq); **sirmamak** (yulib olmoq, ijrati olmoq; oʻgʻirlamoq); **kenarkamak** (aynan kinarkamak, yoymoq, toʻshamoq, yozmoq); **sigʻriqmoq** ((qochib qutulmoq, yashinib qutulmoq, yashirinmoq); **sigʻinmoq** (topinmoq, birovga yoki biror narsaga ortiq berilmoq, sigʻinmoq; joylanmoq); **qilmoq** (maʼlum yoʻnalishda burilmoq, mayilga qarshi chetga chiqmoq; hurkmoq, choʻchimoq); **yolinmoq** (yalinmoq, yolvormoq, kechirim soʻramoq, iltimos qilmoq); **munqlanmoq** (munqli va mayus holga tushmoq, dard-alam chekmoq); **indamak** (indamoq, biror narsa demoq; chaqirmoq); **tergamak** (tergamoq, soʻroq qilmoq, biror narsa haqida tadqiqot qilib maʼlumot toʻplamoq); **tevramak** (koʻklamoq; sanchmoq, qadamoq; teshmoq); **qinggʻaymoq** (qingʻaymoq, biror tomoniga ogʻib turmoq, qiyshaymoq, enkaymoq, ogʻmoq; qiyqir qaramoq, koʻz alaytirmoq); **shigʻaldamoq** (shiqillamoq, ezmalammoq); **singramak** (ogʻriq bilan yashirin va asta yigʻlamoq); **yashqamoq** (oyoq-qoʻlni uzatib oʻtirgan yoki yotgan holatda erkin tutmoq); **isqarmoq / iskarmak** (qabul qilmoq, hisobga olmoq, xotirlamoq, eslamoq); **koʻngranmak** (achchiqlanish va gʻazablanishdan oʻz-oʻzidan gapirmoq, ich siqilib oʻz-oʻzidan bezovta boʻlish); **suxranmoq** (mingʻirlamoq, gʻoʻngʻillamoq, mujmal gapirmoq, pichirlashmoq); **siypamoq** (silamoq, silab erkalammoq); **qorolamoq** (ayblab va yomonlab gapirmoq, mahkum qilmoq; koʻz qochirmay qorosini olib yurmoq); **surkanmak** (surkanmoq, biror narsaning betini, sirti boshqa narsaning beti yoki sirtiga ishqamoq, surtmoq; yurmalammoq, sudralmoq); **kuymanmak** (kuymanmoq yoki kuymalanmoq, urunmoq; mayda-chuyda ishlar bilan oʻralashmoq, mashgʻul boʻlish);

ingranmoq (dard-alam ta'sirida mungli, ingroq ovoz chiqarmoq, og'riq sababli yashirin va asta yig'lamoq); **tushalmak** (to'shalmoq, solinmoq, yozilmoq, to'shamoq); **mung'aymoq** (tushkun holatda bo'lmoq, mayus bo'lmoq, xafa bo'lmoq); **tanchiqamoq** (hayron qoldirmoq, hayratga cho'milmoq, hayratga solmoq; buzilmoq); **tanchiqolmoq** (hayron qolmoq, hayratga solmoq, buzilmoq, mayda-mayda qilmoq); ko'ruksamak / ko'rugsamak (Biror kishi diydorini orzu qilmoq); **bushurg'anmoq** (qattiq g'azablanmoq, jiddiy jahli chiqish, afsuslanmoq); **buxsamoq** (g'am-anduh shiddatidan bo'g'ilib yig'lamoq; oshiqning ma'shuq hijridan yig'lashi); **kirkinmak** (so'l va o'ngga tashlash, u yon bu yonga tashlanmoq); **sukadamak / sugadamak** (hurmat qilmoq, ulug'lamoq); **busmoq** (bo'smoq, o'zini panaga olmoq, yashirinmoq; tuzoq qurmoq); **burmak** (burmoq, o'ramoq, aylantirmoq, bir tomonga qayirmoq); **turmak** (turmoq, tik turmoq, tik to'xtamoq); **tomshimoq** (qatra-qatra ichib har qultumdan maza qilmoq); **qahamoq** (bo'g'izga ilmoq, bo'g'izga qolmoq); **sipqarmoq** (bir shimirishda hammasini ichish, birdaniga ko'targanda butunlay ichish); **chicharkamak / chichargamak** (naqsh va nigor qilmoq); **jurkanmak / churkanmak / churganmak** (dumaloq bo'lmoq, g'ijak bo'lmoq; azobdan yonmoq; olovning taftidan qoraygan, kuygan); o'rtanmak (o'rtanmoq, kuyinmoq, qovurilmoq, yandirilmoq); **sizg'urmoq** (Kuyishning erish darajasiga yetgani, kuygandan erish); **gurapklashmak / kurpaklashmak** (aynan guppaklashmoq, to'dalashib, bir-birini tortqilib, bosib-yiqitib, yoqalashib o'ynamoq); **chuprutmoq** (to'dani birin-ketin tarqatmoq; cho'ziltirmoq, uzaytirmoq); **jirg'amoq / chirg'amoq** (xursand bo'lmoq, ayish-ishrat qilmoq); **bichimoq** (o'lchov bilan kesmoq, bichmoq); **qingranmoq** (qaysarlik, o'jarlik qilmoq, xafa bo'lmoq); **singurmak** (qayg'urmoq, g'amni ichga yutmoq); **kundalatmak** (oyoqni bandga solmoq, xonaga qamamoq); **kumurmak** (kemirmoq, qattiq narsani tish bilan qirib, maydalamoq; go'shtni suyaktan ajratib olmoq); **yigirmak** (jirkanmoq, ijirg'anmoq, yoqimsizlik); **kung'urdamak** (ming'irlamoq, ging'shaymoq; bezovta bo'lmoq, qiynalmoq); **kinarkamak** (to'shamoq, yozmoq, yoymoq; 36- fe'l – kenarkamak bilan ayni ma'noda); **kezarmak** (kezmok, aylanib yurmoq, sayr qilmoq, yurmoq, qidirib topmoq); **do'ptulmoq** (to'la bo'lmoq, to'lmoq, hujum qilmoq); **chidamoq** (tahammul etmoq, sabr qilmoq); **tuzmak** (tuzmoq, yaratmoq, vujudga keltirmoq; tartibga solmoq; to'g'rilamoq); **qozg'onmoq** (qozonmoq, qo'lga kiritmoq, biror narsaga erishmoq; biror narsaga sazovor bo'lmoq); **qichig'lamoq** (qitiqlamoq; kiprik qisqmoq); **chimdilamoq** (chimdimoq, chimchilamoq); **gangiramak** (gangaramoq, sarosimga to'shmoq, kutilmagan hodisa tufayli esankiramoq, muvozanatni qo'ldan bermok); **yadamoq** (charchab qolmoq, nihoyat charchamoq, egilmoq, bukchaymoq); **qadamoq** (sanchmoq, biror narsani

qoqish, suqmoq, oʻrnatmoq); **chiqanmoq** (oyoq osti qilmoq, yanchmoq, tepib maydalamoq); **koʻndurmak** (koʻndirmoq, rozi boʻlmoq, qanoat bermoq), **soʻndurmak** (soʻndirmoq, oʻchirmoq, pasaytirmoq, kuchsizlanmoq); soʻqlatmoq (ishtahani ochmoq, qoʻzgʻatmoq, ishtahaga keltirmoq).

Feʼllarning semantik xususiyatlari

Navoiy oʻzining “Muhaqamatul-lugatayn” asarida qayd etgan 100 ta feʼlning oʻziga xos koʻpgina xususiyatlari bor, u jumladan, uning semantik xususiyati alohida ahamiyatga ega.

Navoiy mazkur felni alfavit asosida tartib bermaganining ham asosiy sababi uning semantik xususiyatlarini nazarda tutishidir.

Navoiy keltirgan 100 ta feʼlning ayrimi sinonimik qatorda kelsa, ayrimi esa antonimik (kontekstual antonimik) qatorda joylashtirilgan. Sinonimik qatorda keltirilgan feʼllar koʻpincha ideografik yoki maʼnoviy sinonimlardan (Navoiy mubolagʻa atamasini qoʻllagan) iborat boʻlib, baʼzi feʼllarning sinonimlaridan soʻng, uning kontekstual antonimlari ham beriladi. Mazkur feʼllarning ayrimi polisemantik feʼllardan iborat boʻlsa, ayrimi esa oldingi feʼlga aloqador boʻlgan feʼllar keltiriladi. Ushbu feʼllarning baʼzisi nozik maʼno “gʻaroyib mazmun”larni ifodalaydi, ularning ekvivalenti fors tilida boʻlmagan, forsda bu gʻarib mazmunlarni ifodalash uchun necha soʻzdan tashkil topishi kerak va bu qoʻshilmalarni hozirgi tilshunoslikda, frazeologizmlar deyiladi.

Bulardan tashqari, Navoiy baʼzi feʼllarda oʻzlik nisbatini yasovchi qoʻshimchalar qoʻshib, nozik maʼnolarni ifodalashga intiladiki, uning ekvivalenti fors tilida boʻlmagan. Yuqorida qayd etilgan har bir semantik xususiyatni ochishga harakat qilamiz.

Mazkur feʼllarning birinchi xususiyati uning sinonimik qatorda joylashishidir. Sinonimlar haqida Yoʻldoshev va Sharifovalarning “Tilshunoslik asoslari” (2007) asarida shunday deb maʼlumot beriladi: “Sinonimlarning oʻzaro farqli xususiyatlari talaygina boʻlib, ulardan eng asosisi ularning har birining maʼnasidagi farqli belgilaridir. Sinonimlarning oʻzaro farqli belgisi, avvalo, ularning maʼno hajmida, aniqligida, maʼno nozikligida koʻrinadi” (Yoʻldoshev va Sharifova, 2007, 94-bet). Navoiy keltirgan feʼllarning ayrimi sinonimik qatorda kelsa, uning atamasi bilan aytganda “mubolagʻa” va hozirgi oʻzbek tilida ideografik sinonim yoki maʼnoviy sinonim deb atalgan shaklda keladi. Bu haqda Navoiy “Muhaqamat ul-lugatayn”da shunday deb yozgan: “Neuchunki, turk alfozi vozʼiy asru koʻp vaqtda mubolagʻa izhori qilib, juzvi mafhumot uchun alfoz vazʼ qilibdurki, sohib uquf kishi to zohir qilmas inonsa ham boʻlmas” (Mahokamat ul-lgʻatayn, 2017, 32-bet).

Navoiy misol sifatida, ingramak va singramak fe'llarini keltirib, yig'lamaq fe'lidan sekin yig'lash bo'lsa, siqtamoq fe'li yig'lamoq fe'lga "mubolag'a" (arttirma darajasi)dir, yig'lamoq fe'li esa ularning o'rta yoki oddiy darajasidir, hamda Navoiy o'kurmak fe'lini, yuqori ovoz bilan haddan oshiq yig'lash ma'nosida ishlatgan bo'lsa, uning ziddini – inchkirmak fe'lini keltiradi, inchkirmak fe'li ingichka ovoz bilan yig'ilishdir. Undan tashqari, bo'xsamoq (g'am-anduh bilan bo'g'ilib yig'lamoq) kabi bir nechata sinonim fe'llarni keltiradi.

100 ta fe'lning 14-fe'li "aldamoq" va 15-fe'li esa "arg'adamoq" bo'lib, ideografik yoki ma'noviy sinonimlardir. Navoiy asarlarida "aldamoq" fe'li – farib bermaq, yolg'on va'dalar bilan ko'ndirmoq ma'nosida ishlatilgan:

Anga yetkur so'zum, ey ohkim, ul husn maroti,
Chu qildi jilva, ko'zgu aksi yanglig' **aldaraydurmen.**

G'aroyib us sig'ar, 399-b.

Arg'adamoq fe'li – ko'p hila-nayrang qilmoq, ko'p yolg'on so'zlamoq, yolg'on-yashiq gaplar bilan ko'ndirmoq kabi arttirma darajada (mubolag'asi) ishlatilgan:

Meni bedil sanga jon o'ynamoq birla yaraydurmen,
Bali sen tiflni bu tuhfa birla **arg'adaydurmen.**

G'aroyib us sig'ar, 398-b.

Mazkur fe'llarning yana bir semantik xususiyati uning kontekstual antonimik qatorda kelishidir. Kontekstual antonimiyalik «Tilshunoslik asoslari» asarida shunday ma'lumot keltirilgan: "Kontekstual antonimiya o'zaro zid ma'no ifoda etmagan leksimlarning ma'lum kontekst ichida so'zlovchi yoki muallif tomonidan antonimik munosabatlarga kiritilishidir" (Yo'ldoshev va Sharifova, 2007, 96-bet). Navoiy qiymanmoq (qimsanmoq – ko'p istamoq) va qizg'anmoq (hasad qilmoq) fe'llarini keltirgan, qiymanmoq fe'li qizg'anmoq fe'lga kontekstual antonimik qatorda keltirilgan. Mazkur fe'llarni Navoiy o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida aynan bir-biriga zid ma'noda ishlatgan:

Uzoringni ocharg'a **qimsanurmen,**
Lekin el ko'rmakiga **qizg'anurmen.**

Mahokamat ul – lug'atayn, 35-b.

Yuqorida ham ta'kidlangandek, 100 ta felning semantik xususiyatlariga qaraganda, ayrimlari ko'pincha nozik ma'nolarni anglatga, ayrimlari sinonimik va kontekstual antonimik qatorda kelgan.

Masalan, aldamoq bilan arg‘adamoq fe’llari sinonimik qatorda kelgan bo‘lsa, umunmoq bilan o‘sanmoq fe’llari kontekstual antonimik qatorda joylashgan, hamda ayrim fe’llarning semantik xususiyatiga qarab eng nador ma’no qirralari nazarda tutilgan. Masalan, quvarmaq fe’li qurimoq ma’nosini bersa, uning mubolag‘asi (ideografik sinonimi) quruqshamoq bo‘lib, uning shiddatidan sinib ketishi (“juz’iy mafhumoti”) esa usharmak fe’li, ya’ni qurimoq va quruqshamoqdan singan fe’li ham keltirilgan.

Ba’zi o‘rinlarda, sinonimik qatorda kelgan fe’lning kontekstual antonimik qatari ham undan so‘ng kelgan. Masalan, aldamoq fe’lining ideografik sinonimi – “mubolag‘asi” arg‘adamoq fe’lidan keyin ishanmak fe’li antonimik qatorda kelgan.

Mazkur fe’llarning yana bir semantik xususiyati esa fe’llarning nozik ma’nolari – “g‘aroyib mazmun” nazarda tutilgan. Masalan, iglanmoq va aylanmoq polisemantik fe’llari ketma-ket joylashtirilgan, ya’ni iglanmoq fe’lidan so‘ng aylanmoq fe’li berilgan bo‘lib, iglanmoq fe’lining bir ma’nosi o‘tirib zavqlanishdir, aylanmoq fe’lining bir ma’nosi esa sayr qilmoqdir.

Iglanmoq Navoiyning boshqa asarlarida ishlatilmagan, lekin aylanmoq fe’lining sayr qilmoq ma’nosi Navoiyning «Hayrat ul- abror» dostonida shunday keltirilgan:

Egri uchush birla chu ko‘p **aylanib**,

Qaydaki, parvona borib o‘rtanib.

Xamsa, 104-b.

ushbu fe’llarning yana bir semantik xususiyati, uning polisemantik fe’llardan iboratligidir. Masalan, chayqalmoq fe’li 2 ma’noda ishlatilgan:

1. Chaymoq, yuvilgan narsani toza suvga bottirib yoki ustidan quyib, chayqab tozalamoq:

Tani **chayqalib** ko‘ngli to pokidin,

Ul o‘t bosh urub jismi xoshokidin.

Saddi iskandariy, 968-b

2. Tebranmoq, harakatga kelmoq va to‘lqinlanmoq:

Tur uzra tajalli aylagach fosh,

Chayqaldi suv yanglig‘ ul qatig‘ tosh.

Xamsa, 600-b.

Navoiy kezarmak fe’lini 3 ma’noda (sayr qilmoq, yurmoq va aylanib qidirib topmoq) ma’nolarda ishlatgan:

1. Sayr qilmoq, aylanib yurmoq:

Kezar erdi boqib har peshavarni,

Ki ko'rdi necha chobak teshavarni.

Xamsa, 229-b.

2. Yurmoq:

Bir necha kun **kezar** edim g'amgin,

Topa olmadi xotirim taskin.

Xamsa, 793-b.

3. Aylanib qidirib topmoq:

Ne ma'niki, istar o'zinda topor,

Jahonda **kezar**ning ne ma'nisi bor.

Xamsa, 1064-b.

Navoiy tuzmak fe'lini 4 ma'noda ishlatgan, shuningdek, yordamchi fe'l vazifasida ham ishlatgan:

1. Tuzatmoq, to'g'rilamoq:

Sen o'z xulqungni **tuzgil** bo'lma el axloqidin xursand,

Kishiga chun kishi farzandi hargiz bo'lmadi farzand.

G'aroyib us sig'ar, 139-b.

2. Bino qilmoq, yaratmoq:

Tuzmagay erdi qazo bu jism vayronimni kosh,

Chunki tuzdi, solmagay erdi anga jonimni kosh.

G'aroyib us sig'ar, 257-b.

3. Idora qilmoq, boshqarmoq, tartibga solmoq:

Chunki saltanatqa o'lturdi, jahon mulkin adl va dod bila **tuzdi**. Tarixi muluki ajam, 154-b.

4. Chizmoq:

Doyrani juz bu sifat **tuzmayin**,

Silsilani bir-biridin uzmayin.

Xamsa, 5-b.

5. Yordamchi fe'l vazifasida:

Bazm tuz – majlis, bazm qurmoq:

Har qachon ul qilib, nishotqa azm,

Tuzsa gulfom qasri sahnida bazm.

Xamsa, 737-b.

Surud tuz – she'r, nag'ma tuzmoq:

Mug‘anniy, qilib soz rudi nishot,

Aning birla **tuzgil** surudi nishot.

Xamsa, 878-b.

Navha tuz – nola u afg‘on qilmoq:

Ey Navoiy, navhay hijron **tuzub** un chekma ko‘p,

Kim kishi qolmas tirig yetkach bu afg‘on har taraf.

G‘aroyib us sig‘ar, 289-b.

Navoiy mazkur fe‘llarni juda mahorat bilan joylashtirgan, uning o‘ta nozik ma‘no – “g‘aroyib mazmun”larni nazarda tutib, ikki fe‘l orasida aloqali bo‘lgan fe‘l berilgan. Masalan, qatra-qatra ichib har qultumdan maza qilishni ifodash uchun tomshimoq fe‘lini keltirsa, uning orttirma darajasi “mubolag‘asi” bir ko‘tarishda butunlay ichish harakati uchun sipqarmoq fe‘li keltiriladi. Ushbu ikki fe‘l orasida ba‘zan oz-oz ichish yoki bir ko‘tarib ichish sababli bo‘g‘izga uchrash harakatini ifodalaydigan qahamoq fe‘li beriladi.

Bulardan tashqari, Navoiy “Mahokamat ul - lug‘atayn”ida keltirilgan 100 ta fe‘lning yana bir xos semantik xususiyatlaridan biri, unda shunday fe‘llar ham kelganki, uning fors tilida muqobil fe‘li bo‘lmagan. Mazkur “yuz lafz” (yuz so‘z) Navoiyning ta‘kidlashicha, fors tilida ifodalanish uchun so‘z bo‘lmagan, bo‘laganda ham, ular frazeologizmlardi, na fe‘llar. Bu haqda Navoiyning o‘zi shunday deb ma‘lumot beradi: “Bu yuz lafzdurki, g‘arib maqosid adosida ta‘yin qiliib-durki, hech qaysi uchun sart tilida lafz yasamaydurlarki, barchasi muhtoj ilayadurki, takallum chog‘ida kishi anga muhtoj bo‘lur. Ko‘pi andoqdurki, aslo aning mazmunin tafhim qilmoq bo‘lsa bo‘lmas va ba‘ziniki, anglatsa bo‘lg‘ay har lafz tafhimi uchun necha lafzni tarkib qilmag‘uncha bo‘lmas, ul dag‘i arabiy alfoz madadi bila va turk alfozida bu nav’ lafz ko‘p topilur” (Mahokamat ul-lug‘atayn, 2017, 33-bet).

Navoiy to‘g‘ri ta‘kidlagandek, mazkur fe‘llarning ko‘pginasida fors tilida o‘sha vaqtda hatto hozirgi forsiy-dariyda muqobili bo‘lmagan. O‘rnak sifatida chimdilamoq, so‘qlatmoq, qozg‘onmoq, tomshimoq, sipqarmoq, qahamoq, bo‘xsamoq, ingranmak, singramak, do‘msaymoq kabi fe‘llarni qarshisida fors tilida fe‘l mavjud emas, mazkur fe‘llarning ayrimini fors tilida ifodalash uchun frazeologizmlar qo‘llanilsa, ayrimida frazeologizmlar ham mavjud emas. Masalan, chimdilamoq fe‘li qarshisida “chunduk giriftan” va “nishgun giriftan”, suqlatmoq fe‘li qarshisida “ba ishtiho ovaridan”, qozg‘onmoq fe‘li qarshisida “ba dast ovaridan”, tomshimoq fe‘li qarshisida “kam-kam xo‘rdan” yoki “shub-shub xo‘rdan”, sipqarmoq fe‘li qarshisida yak bor no‘shidan, qahamoq fe‘li qarshisida “dar gulu band mondan”, do‘msaymoq

fe'li qarshisida "peshoni tursh kardan" kabi frazeologizmlar mavjud bo'lsa-da, lekin mazkur fe'llarni ifodalash uchun muqobil fe'l bo'lmagan, va ayrim fe'llar, jumladan, bo'xsamoq (g'am-anduh shiddatidan bo'g'ilib yig'lash yoki oshiqning ma'shuqasi hajridan yig'lashi), ingranmak va singramak (og'riq sababli yashirin va asta yig'lash) kabi fe'llarning ma'nolarini ifodalovchi na fe'l, na frazeologizm bo'lgan.

Mazkur fe'llarning ayrimida turkiy tillar morfologiyasiga xos o'zlik nisbatini yasovchi qo'shimchalarni qo'shish orqali yasalgan. O'zlik nisbati fe'lning grammatik kategoriyalaridan biri bo'lib, fe'l asosiga -(i)n va -(i)l qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil bo'lib, bunda bajruvchining o'z ustida amalga oshadigan harakat yoki holatni ifodalashga aytiladi. Navoiy ushbu morfologik xususiyat tufayli fe'l semantikasiga nozik ma'nolarni ifodalash va uning fors tilida muqobili bo'lmagan fe'llarni yasagan. Masalan, chayqamoq fe'lida -(i)l qo'shimchasini qo'shib chayqalmoq va o'rtamoq fe'lida -(i)n qo'shimchasini qo'shish bilan o'rtanmoq fe'llarini yasab, fors tilida ifodalab bo'lmaydigan nozik ma'noni ifodalaydi. Navoiy "Layli va Majnun" dostonida chayqalmoq fe'lini o'z ustida o'zi amalga oshirish ma'nosida ishlatgan:

Falak birla yer sarbasar **chayqalib**,

Dema chayqalib, borchasi qo'zg'alib.

Xamsa, 1102-b.

Hamda o'rtanmoq fe'lini "G'aroib us sig'ar"da ayni nozik ma'noda ishlatgan:

Gar Navoiy yanglig' **o'rtansa** ne tong parvona ham,

Kim uning yoridurur bir servi qadi kaj kula.

G'aroyib us sig'ar, 487-b.

Navoiyoning «Mahkamatul-lugatayn» asari kam o'rganilganligi tufayli undagi qayd etilgan eski o'zbek tili va adabiyotiga oid ma'lumotlar haligacha amaliy shaklda o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida unumsiz foydalangan, hatto ko'plar mazkur asarning mohiyatini tushunmay, asarda qayd etilgan fe'llarning ma'nosini bilmaslik tufayli uni o'rganmay qo'ygan. Agarchi bu sohada, ayrim izlanishlar amalga oshgan, lekin u umumiy shaklda bo'lib, haligacha negadir mazkur fe'llarning hozirgi o'zbek tilidagi aniq ma'nolari va ularning asosiy semantik xususiyatlariga yetarlicha diqqat qilinmagan edi. Shuning uchun ham ayrim tadqiqotlarda mazkur fe'llarning hozirgi o'zbek tilidagi ma'nosi berilmas edi hamda ba'zi tadqiqotlarda uning semantik xususiyatlari aniqlanmasligi tufayli mazkur fe'llarni alfavit tartibida joylashtirib izohlashga intilgan edi. Ushbu maqolada, fe'llarning asl semantik xususiyatlari aniqlandi va uning asosida tahlilga olinib o'rganildi.

XULOSA

Navoiyoning «Mahkamatul-lugatayn» asarida turkiy tilning fe'ldan boy va o'ta nozik ma'nolarni ifodalashga qodir til sifatida tasvirlab, unda namuna shaklda 100 fe'ning semantik xususiyatini nazarda tutilgan.

Mazkur fe'llar sinonimik va kontekstual antonimik qatorda keltirishni nazarda tutib, joylashtirilgan. ayrim o'rinlarda, sinonimik qatorda keltirilgan fe'ning kontekstual antonimik qatori ham undan so'ng berilgan, ayrim o'rinlarda esa sinonimik yoki kontekstual antonimik qatordan tashqari, unga qandaydir aloqador fe'l joylashtirilgan.

Keltirilgan 100 ta fe'ning yana bir xususiyati, ayrim fe'llar polisemantik ya'ni bir nechta ma'noda ishlatiladigan fe'llardir, ushbu polisemantik fe'llardan ba'zisi yordamchi fe'l vazifasida amal qilinishi ham kuzatish mumkin, hamda mazkur fe'llar o'ta nozik ma'nolarni ifoda etish nazarda tutilgan, ayrim fe'llarda o'zlik nisbati qo'shimchalarini qo'shish bilan uni fors tilida ifodalab bo'lmaydigan nozik ma'nolarni ifodalagan. Bundan tashqari, Navoiy yig'lamasinmoq, telmurmak, yasanmog' va bezanmak kabi fe'llarni 100 ta fe'l ichida joylashtirmagan bo'lsa-da, «Mahkamatul-lugatayn»da keltirgan. Buni hisobga olib aytish mumkinki, Navoiy 100 ta fe'lni namuna shaklda keltirilgan bo'lib, turk tili (eski o'zbek tilida) fe'l ko'pligi bilan birga o'ta nozik ma'nolarni ifodalovchi san-sanoqsiz fe'llar mavjudligini isbotlaydi

REFERENCES

1. Afandi o'zbeki al-Buxoriy, Shayx Sulaymon. (2013 / hij.1392). Farhangi Chag'atoyi-o'zbekiy. Tarjima va hoshiyanavis: Hasan Abdulhay Jahoniy, Denizchin nashryoti, Tabriz.
2. G'aniyeva, S. va boshqalar. (2016). Alisher Navoiy: Qamusiylug'at. 1-2-jild, Sharq Nashryoti-Matba'a Aksiyadorlik Kompaniyasi Bosh Tahririyati, Toshkent.
3. Ibrohim, Rahim. (2017/ hij. 1396). Farhangi o'zbekiy ba forsiy. Saqofat nashryoti, Mazar-i Sharif.
4. Navoiy, Alisher. (1984 / hij.1363). Mahokamat ul-lug'atayn. nashrga tayyorlovchi: Dr. Muhammad Ya'qub Vohidiy, Afg'oniston fanlar akademiyasi, o'zbek tili va adabiyoti kafedrası nashryoti, Kobul.
5. Navoiy, Alisher. (1996). Mahokamat ul-lug'atayn. Nashrga tayyorlovchi: F. Sema Brutchi O'zundir, Irmak matbuachilik, Anqara.
6. Navoiy, Alisher. (2008 / hij.1387). Mahokamat ul -lug'atayn. Nashrga tayyorlovchi: Dr. Husayn Muhammadzoda Sadiq, Tabriz.

7. Navoiy, Alisher. (2008). G‘aroyib u sig‘ar. nashrga tayyorlovchi: Nurulloh Oltoy. Global Partners, Malayziya.
8. Navoiy, Alisher. (2009 / hij. 1388) Mahokamat ul-lug‘atayn. Nashrga tayyorlovchi: Toshqin Bahoiy, Afghan Press. Kobul.
9. Navoiy, Alisher. (2009 / hij. 1388). Tarixi muluki Ajam. Nashrga tayyorlovchi: Abdulloh Ro‘yin, Sultoni matbuasi, Mazar-I sharif.
10. Navoiy, Alisher. (2017). Mahokamat ul-lug‘atayn. Nashrga tayyorlovchi: Qosimjon Sodiqov, Akadem nashr, Toshkent.
11. Navoiy, Alisher. (2022 / hij. 1402). Xamsa. Nashirga tayyorlovchi: Toshqin Bahoiy. Xuroson nashryoti, Tehron.
12. Ostarobodiy, Mizra Mahdixon. (1994 / hij.1373). Sanglox. nashirga tayyorlovchi va muharir: Ro‘shan Xiyoviy. Nashr Markaz, Tehron.
13. Yo‘ldoshev I. Sharifova o‘. (2007). Tilshunoslik asoslari. Iqtisod-Moliya nashryoti, Toshkent.